



QADRIYATLAR NAZARIYALARI ASOSIDA BOLALARNI MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYALASHNING TARIXIY TAHLILI

Muhammadiyah F.T.

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'im nazariyasi kafedrasi kata o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: qadriyat, voqea, hodisalar, odamlar, ma'naviy rivojlanish, ma'naviyat, ma'no», «ma'ni».

Ключевые слова: ценность, событие, события, люди, духовное развитие, духовность, смысл», «смысл».

Key words: value, event, events, people, spiritual development, spirituality, meaning", "meaning".

Kirish. Ma'naviyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi bo'lib, uning alohida sohasini tashkil etish bilan birga moddiy hayot singari obyektiv reallikka ham egadir. Ma'naviyat, ma'naviy hayotning jamiyat hayotida tutadigan o'rni haqida so'z yuritishdan oldin «ma'naviyat» atamasining mazmunini aniqlab olish lozim. «Ma'naviyat»ning o'zagini «ma'no», «ma'ni» so'zlari tashkil etishi haqida adabiyotlarda tuxtab o'tilgan. Tekshiruvchilarning fikricha, «ma'naviyat» atamasi, bir tomondan, arabcha «ma'ni» o'zagidan hosil bo'lgan. Ilk islom islohotchilari ta'limoticha, Kalom bir talay qismlarga bo'lingan: borliqdan avvalgi hayot- kummun, atomlar haqidagisi- javhar al-fard, sababiy bog'lanish to'g'risidagi ta'limot - tavallud, mohiyat to'g'risidagi ilm - ma'na hisoblangan. [1]

Asosiy qism. Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllar bilan bog'liq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardan o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa, voqea va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko'paygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan. [2] Qadriyatlar mavzusi bir qator dunyo qarashlarning asosida yotgan, ularning markaziy qismini tashkil qilgan. Ko'pgina falsafiy oqimlar va mutafakkirlar ham bu mavzuni



chetlab o'tmaganlar. Mavzuning falsafiy-tarixiy tahliliga bag'ishlangan G'arb va Yevropa, Rossiya va sobiq ittifoqning mintaqamizdan boshqa hududlarida yashaydigan olim va mutaxassislariga tegishli kitob va risolalarda, bu tahlil asosan, Yevropa olimlarining merosi va qadriyatshunoslikka qo'shgan hissasi to'g'risida boradi. Bunda Sokrat, Platon, Aristotel, Geraklit, Demokrit, J.J.Russo, A.Sen-Simon, Sh.Furye, R.Ouen, I.Kant, M.Sheler, N.Gartman, V.Vindelband, G.Rikkert, Ujejms, J.Dyui, N.Berdyayev, P.Sorokin, E.Dyurkgeym, T.Parsons va boshqalarning nomlari tilga olinadi. [1] Biz ham ushbu mutafakkir, olim va faylasuflarning qarashlari, xulosalari va mulohazalaridan ijodiy foydalandik, shu davomida ular yozgan ba'zi asarlarga murojaat qildik. Ularning fandagi o'rni, asarlarining ahamiyati katta, «sofizm», «platonizm», «kantchilik», «pragmatizm», «pozitivizm», «industrial jamiyat», «postindustrial jamiyat» kabi oqim va ta'limotlar ana shu olim hamda faylasuflarning nomi bilan bog'langan. Yuqoridagi olimlarning qadriyatshunoslikka qo'shgan hissasi xilma-xil, ushbu sohada ahamiyatga molik xizmatlari ko'p va biz ularning zamonaviy aksiologiya uchun qard-qimmatini inkor etmoqchi emasmiz. Ammo qadriyatlar mavzusi ko'hna va navqiron Sharq, uning tarkibiy qismi bo'lgan Markaziy Osiyo va O'zbekiston mutafakkirlari hamda olimlari uchun ham begona emas! Qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlarini faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan holi bo'lmas kerak. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug'bek, Jamiy, Navoiy, Mashrab, Bedil, Maxtumquli, Abay, Behbudiy, A.Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ijodida ham bu mavzuning izlari bor. [2] Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmashlikda, yangilab turishda, zamona realliklari nuqtai nazaridan xolisona talqin qilishdadir. Kishilar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy munosabatlar deb ataladi, chunki ular muloqotda, mehnatda, moddiy hayo praktikasida tarkib topadi. Insonni faoliyatli, o'zgaruvchan mohiyat qilib shakllantiradigan mehnat bu hayotning negizini tashkil etadi. Munosabatlar moddiyga va ma'naviyga bo'linadi. Birinchisi - mehnatda, kishilarning butun moddiy hayotida, ikkinchisi — hayotning ma'naviy sohasida tarkib topadi. Ma'naviy munosabatlar olami kishilarning amaliy-vokeiy munosabatlari negizida yuzaga chiqadi.[2]

Muhokama va natijalar.Quyida biz yurtimizning o'tmish madaniyatida qadriyatlar muammosi qanday ahamiyat kasb etganligi va ilm ahli tomonidan qay tariqa yoritilganligini qisqacha tahlil qilamiz. Biz uchun bunda eng asosiy maqsad – tarixiy tadqiqot emas, balki masalaning qadriyatshunoslik bilan bog'liq tarzda qo'yilishi va tahlil qilinishidir. Bu boradagi intilish «Osiyosentrizm» tarzida emas, balki avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar tarixini jahon madaniyatining tarkibiy qismi va sivilizasiyamiz madaniyatining ajralmas bo'lagi sifatida

xolisona o'rganishga harakat qilishdir. Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik ruhi badiiy tasvirlangan. «Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning «Iliada» va «Odiseya» dostonlari bilan qiyoslash mumkin» Avestoda yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid g'oyat o'iqiz manbalar borki, ularni yanada chuqur o'rganish lozim. Inson ma'naviyatini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyati empirik hayotning "vaqtinchalik" xususiyatini engib o'tish va uni ma'lum bir ma'noga intilish orqali abadiy deb topishdir. Uslubiy jihatdan bu S. Frankning quyidagi so'zlarida ifodalangan: " mukammallik va hayot bir xil; va hayot borliqning ichki mohiyatidan boshqa narsa emasligi sababli, o'zi uchun haqiqiy mavjudot, o'zini o'zi anglash va borliqning o'zini o'zi ochib berish, mukammallik va borliq bir xil" .

Ma'naviy rivojlanishning natijasi inson hayotining ma'nosini topishdir. Ushbu hodisaning mutloqligi uning abadiyligidan dalolat beradi. Faqat ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan odam o'z rivojlanishida oldinga siljishi mumkin. Bu rus faylasuflarining zamonaviy maktab bolalarnilarining ma'naviyatini tarbiyalashning pedagogik nazariyasi uchun uslubiy asos bo'lishi mumkin bo'lgan hayotning mazmuni va uni qanday topish mumkinligi haqidagi savolga qarashidir.

Qadriyatlar muammosi Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarining katta qismi falsafiy muammolarga bag'ishlab yozilgan, afsuski, ularning ko'pchiligi (masalan, «Adolat» nomli falsafiy ensiklopediyasi, «Sharq falsafasi», «Yaxshi ish va gunoh» asarlari) bizgacha yetib kelmagan. Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning «Donishnoma», «Solomon va Ibsol» kabi bizgacha yetib kelgan asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Uning nazarida o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi. Ibn Sino inson, uni o'z-o'zini idora qilishi haqidagi fanlarning ahamiyatini to'g'ri ta'kidlaydi. Afsuski, Sharq falsafasida asosiy mavzulardan biri bo'lgan bu yo'nalishdagi fanlarga sobiq sovet davrida yetarli e'tibor berilmadi, holbuki, bu borada yaxlit «Insonshunoslik» fanini rivojlantirish zaruriyati allaqachon yetilgan edi. Ibn Sino ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyatiga ham katta e'tibor bergan. Uningcha, odamning qadri boshqalar



bilan hamkorligi, yaxshi ahloqiy fazilatlarga ega bo'lishga intilishi, donologi, boshqalarga yaxshilik qila olishidadir. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri boy va sermazmun ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining xolis ko'rsatkichidir.

Xulosa. Slobodchikov, F. E. Vasilyuk) va inson faoliyati-ixtiyoriy (V. P. Zinchenko) sohalari. Ma'naviyat fenomenologik xususiyatga ega. Qadriyatni tarbiyalash - bu hayot mazmunini o'zlashtirishning ekzistensial to'ldirilgan vaziyatlarini qurish, bolaning hayotning ijobiy ma'nosini olib boruvchi sub'ektlar bilan munosabatlarini tashkil etish. Shuning uchun ham milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlar mavzusida so'z yuritish bu millatimizning kelajagiga e'tiborsiz emasligimizni isbotlovchi dalildir. Ma'naviyatli insonlarning jamiyatimizda tutga o'rni esa beqiyosdir. Yosh avlodlarga o'rgatib boorish har birimizning burchimizdir.

Adabiyotlar:

1. E. Umarov, M. Abdullayev "Ma'naviyat asoslari" Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyati muvofiq lashtiruvchi Kengash tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan
2. Qiyom Nazarov Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya) Toshkent Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti - 2004
3. Qiyom Nazarov Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya) Toshkent Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti - 2004
4. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. T., 2007.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada qadriyatlar nazariyalari asosida bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyalash qanday olib boorish kerakligini, qadriyat so'zining ma'nosi nima ekanligi, yosh avlod tarbiyasida uning ahamiyati qanday daraja ekanligi haqida bilib olishimiz mumkin. Qadriyatlarining mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardan o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa, voqea va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar.

РЕЗЮМЕ

В данной статье мы можем узнать о том, как проводить духовно-нравственное воспитание учащихся на основе теорий ценностей, в чем заключается значение слова ценность, какова степень его значимости в воспитании подрастающего поколения. Анализ проблем, связанных с сущностью, содержанием, формами проявления ценностей, имеет долгую историю. Люди издревле оценивали окружающий мир, вещь, события и явления в нем, взаимоотношения между людьми, размышляли об их ценности.

SUMMARY

In this article we can learn about how to conduct spiritual and moral education of students based on theories of values, what is the meaning of the word value, what is the degree of its significance in the upbringing of the younger generation. The analysis of problems related to the essence, content, and forms of manifestation of values has a long history. Since ancient times, people have evaluated the world around them, things, events and phenomena in it, relationships between people, and reflected on their value.